

**KONTREYLER TASHISHLARNI TASHKIL QILISHDA TEMIR YO‘L
PLATFORMASIGA AVTOTRANSPORT VOSITALARINI
JOYLASHTIRISH**


Boboyev Diyor Shomurotovich
tayanch doktorantura izlanuvchisi,
Toshkent davlat transport universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: diyor1803boboyev@gmail.com

Annotasiya: Maqolada temir yo‘l transportida kontreyler tashishlarni joriy qilishda transport vositalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Kontreyler tashishlar uchun avtotransportlarni joylashtirish va mahkamlash shartlarini ishlab chiqish ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, maqolada kontreyler tashish tashkil etish uchun turli variantda ortilgan tashish birliklarini xavfsizligini ta‘minlash uchun tahlillar amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: kontreyler tashish, temir yo‘l platformasi, avtopoyezd, yuklarni joylashtirish, g‘ildiraklarni mahkamlash, tirak.

Kirish. Kontreyler tashishni xavfsiz va sifatli tashkil etishda belgilangan texnik me‘yorlar talablari asosida tashishni rejalashtirish muhim sanaladi. Temir yo‘l transportida kontreyler tashishni tashkil etishda avtopoyezd, yuk avtomobili, tirkama, shatakchi va yarim tirkama kabi tashish birliklarini belgilangan talablarga rioya qilgan holda temir yo‘lning 13-9961, 13-4095, 139004M modellaridagi platformalaridan yuklashda foydalanish mumkin. Ushbu platforma modellarida tushirilgan yuk maydoni bo‘lib, tashish birliklarini mahkamlash uchun g‘ildirak juftliklarini o‘rnatishda qo‘llaniladi. Bundan tashqari, bu platformalar yordamida konteynerlar va yechiluvchi avtomobil kuzovlarini tashishni inobatga olgan holda o‘rnatish joylari mavjud [1].

Asosiy qism. Kontreyler tashishlarda yuk sifatida tashiladigan yukli avtotransport vositalarining o‘lchamlari oddiy yuklardan kattaroq bo‘lishi mumkinligini inobatga olib, me‘yoriy hujjatlarda belgilangan temir yo‘l transporti platformalaridan foydalaniladi. Kontreyler tashishlarda foydalanish mumkin bo‘lgan temir yo‘l platformalarining umumiy tuzilishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Temir yo‘l platformasining tuzilishi

1 – rama; 2 – arava; 3 – tormoz tizimi; 4 – подножка; 5 – o‘tish joyi; 6 – tortuv qurilmasi; 7 – g‘ildirak tiraklari; 8 – ko‘ndalang tirak;

9 – konteynerlarni mahkamlash uchun yechiladigan tirak; 10 – g‘ildirak tiraklari uchun vagon osti quti; 11 – konteynerlarni mahkamlanadigan yechiladigan tirak joyi

Kontreyler tashishlarda qo‘llaniladigan tashish birligi sanaluvchi avtotransport vositalari hamda temir yo‘l transporti platformalaring umumiy parametrlari 1-jadvalda batafsil keltirilgan [2].


1-jadval. Harakat birliklarining parametrlari

Parametr nomi	Platforma modeli parametrining nomi		
	13-9961	13-4095	13-9961 13-4095 13-9004m
Yuk ko‘tarish qobiliyati, t	55,5	48	44
Platformaning tarasi, t	30,5	28,0	24,5
Ramaning oxirgi balkalari bo‘ylab uzunlik, mm	20280	21 350	18400
Avtomatik biriktirgichlarni ulash o‘qlari bo‘ylab uzunlik, mm	21500	22520	19620
Baza, mm	15800	17800	14720
Platforma tortishish markazining rels sathidan balandligi, mm	700	813	800
Yuklash maydonining parametrlari:			
-tushirilgan qismning balandligi, mm	1100	970	1100
-tushirilgan qismning uzunligi, mm	-	12250	12140
-platforma konsol qismi polining balandligi, mm	1100	1300	1300

<i>Avtopoyezd (shatakchi va yarim tirkama)</i>			
uzunligi, mm	16500	16500	16500
kengligi, mm:			
- oddiy kuzov	2500	2500	2500
- refrijerator kuzov	2600	2600	2600
balandligi, mm	4000	4000 (3960)	3900 (3830)
og'irligi, t	48.0	48.0	44.0
<i>Avtopoyezd (avtomobil va tirkama)</i>			
uzunligi, mm	18350	18350	18350
kengligi, mm:			
- oddiy kuzov	2500	2500	2500
- refrijerator kuzov	2600	2600	2600
balandligi, mm	4000	3700 (3630)	3700 (3630)
og'irligi, t	48.0	48.0	44.0
<i>Avtomobil</i>			
uzunligi, mm	12300	12300	12300
kengligi, mm:			
- oddiy kuzov	2500	2500	2500
- refrijerator kuzov	2600	2600	2600
balandligi, mm	4000	4000 (3960)	3900 (3830)
og'irligi, t	34,6	34,6	34,6
<i>Tirkama</i>			
uzunligi, mm	10200	10200	10200
kengligi, mm	2500	2500	2500
balandligi, mm	4000	4000	3900
og'irligi, t	24.5	24.5	24.5
<i>Yarim tirkama</i>			
uzunligi, mm	14000	-	-
kengligi, mm:			
- oddiy kuzov	2500	-	-
- refrijerator kuzov	2600	-	-
balandligi, mm	4000	-	-
og'irligi, t	34.0	-	-
<i>Shatakchi</i>			
uzunligi, mm	8900	8900	8900
kengligi, mm	2500	2500	2500
balandligi, mm	4000	4000	4000
og'irligi, t	12, 0	12,0	12,0

Tashish birliklari temir yo'l platformasi bo'yлама simmetriya tekisligiga simmetrik joylashtiriladi. Ularning ko'ndalang yo'nalishlarda siljishi 100 mm dan

hamda platforma ramasidan tashqariga chiqish 400 mm dan oshmasligi kerak. Platformaga bir nechta tashish birliklarini ortishda yuklarni joylashtirish va mahkamlash bo'yicha texnik shartlarda keltirilgan ko'rsatmalarga to'liq rioya qilinadi.



2-rasm. Temir yo'l platformasiga avtotransport vositalarini joylashtirish va mahkamlash

Platformaga joylashtiriladigan avtotransport vositalari soni ularning uzunligi va massasiga qarab belgilanadi. Platformaga bittadan ortiq tashish birligi joylashtirilganda, ular orasidagi masofa 400 mm dan kam bo'lmasligi kerak hamda ularning har biri alohida mahkamlanadi. G'ildiraklarni bo'ylama siljishdan saqlash uchun g'ildirak tiraklari hamda ko'ndalang siljishning oldini olish uchun esa ko'ndalang tirakdan foydalanish mumkin. Yuk avtomobili, tirkama, shatakchi, yarim tirkama tashilayotganida tashish birliklarining g'ildiraklari 8 ta g'ildirak tiraklari va 4 ta ko'ndalang tiraklar bilan mahkamlanadi. G'ildirak tiraklari o'z navbatida platforma polidagi teshiklarga mahkamlash vositalari bilan qotiriladi. Mahkamlangan tashish birligi o'qidan platforma ramasining oxirigacha bo'lgan masofa 1000 mm dan kam bo'lmasligi kerak.

Tushirilgan yuk maydonli platforma modellariga tashish birliklarini joylashtirilganida bo'ylama siljishlardan saqlash uchun tashish birligi turiga bog'liq ravishda 4 yoki 8 ta g'ildirak tiraklari ishlatiladi. Ushbu platformada tirkama, yarim tirkamalarini avtomobil yoki shatakchiga biriktirish moslamasi ulangan va uzilgan holatda tashilishiga qarab, oraliq masofalari belgilanadi. Avtomobil va tirkama uzilgan holatda tashilganda ular orasidagi yuqori gorizontol masofa 250 mm dan kam bo'lmasligi kerak.

Xulosa. Platformaning modeliga mos ravishda turli xil g'ildirak tiraklari kompleksini ishlatish texnik jihatdan qulay va ishonchli sanaladi. Mahkamlashda qo'llaniladigan g'ildirak tiraklari kompleksining umumiy tuzilishi texnik me'yorlarda keltirilgan. Kontreyler tashishlarni tashkil etishda avtotransport vositalarini temir yo'l transporti platformalariga joylashtirish va mahkamlashni keltirilgan shartlar asosida tashkil etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Технические условия размещение и крепление грузов, Ташкент-2015, 712 стр.
2. Mukhamedova Ziyoda Gafurdjanovna, Boboev Diyor Shomurotovich. Development of international transportation on the basis of creating a system of

- contrailer transportation. *Pedagog, 1 – son / 2022 - yil / 15 - sentyabr*, 18-31. // www.bestpublication.org
3. Jamol Shihnazarov, Diyor Boboev, Elbek Shermatov. Investigation of the longitudinal forces acting during the transportation of flat cargo on sites in the road profiles with a slope of railway transport. *AIP Conference Proceedings, 2432(1)*, 2022/6/16, 030112. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hgV11YIAAAAJ&citation_for_view=hgV11YIAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
4. Diyor Shomuratovich Boboev, Ramazon Shamilovich Bozorov, Elbek Sirojiddinovich Shermatov. Choose types of transport and improve their cooperation in the process of delivery of cargo. *"Экономика и социум" №5(84)*, 2021, 98-105. // <https://elibrary.ru/item.asp?id=46393027>
5. Boboyev Diyor Shomurotovich; Muxamedova Ziyoda Gafurdjanovna. ОБОСНОВАНИЕ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ТЕХНОЛОГИЮ КОНТРЕЙЛЕРНЫХ ПЕРЕВОЗОК. *Известия Транссиба. -Известия Транссиба. – 2022. – № 3 (51). – С. 136 – 144.* // . [http://izvestia-transsiba.ru/images/journal_pdf/2022-3\(51\).pdf](http://izvestia-transsiba.ru/images/journal_pdf/2022-3(51).pdf)
6. Жамол Алишерович Шихназаров, Диёр Шомуротович Бобоев. Юкларни етказиб бериш жараёнида ташиш турларини таққослаш таҳлили. *Традиційні та інноваційні підходи до наукових досліджень*. 10.09.2021, 118-123. // https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hgV11YIAAAAJ&citation_for_view=hgV11YIAAAAJ:u-x6o8ySG0sC